

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

FarDU
ILMIY
XABARLAR-

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2023
MAXSUS SON

НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

Э.Б.Ягьяева	
Дифференцированный метода обучения при изучении иностранного языка и организации самостоятельной работы студентов.....	114
М.К.Мавлюда	
O'qituvchi kompetensiyasining o'ziga xos xususiyatlari.....	117
G.A.Asomiddinova	
Qahramon xarakterini yaratishda badiiy nutq imkoniyatlari va muallif mahorati.....	120
N.K.Abbasova, Z.Q.Xakimova	
Speech act as an important function of communication.....	125
Sh.R.Muydinov	
Linguoculturological description of zoonym composite partial similarities.....	128
M.Madaminova	
Exploring the persuasive power of publicistic style: utilizing proverbs and sayings in english lesson.....	130
Sh.M.Yusufjonova	
Frazeologizmlar taqiqi.....	134
Ш.И.Аскарова	
К проблеме языковой интерференции и билингвизма при изучении третичного языка.....	137
Ш.И.Аскарова	
К вопросу трансфера и интерференции при изучении немецкого после английского языка.....	141
Sh.Sh.Dadabayeva	
Tarjimada so'zning kontekstdagi ma'nosini aniqlash usullari.....	148
Sh.Sh.Dadabayeva	
Tarjima jarayonida vaziyatning o'rganilishi.....	152
Sh.Y.Usmonova	
Cognitive analysis of landscape terms in uzbek and english languages.....	159
Sh.Y.Usmonova	
O'zbek va ingliz tillarining terminologik tizimida landshaft terminlarining o'rni.....	162
Z.Sh.Pazilova	
Nemis xalqida dafn marosimining o'tkazilishi.....	167
Z.Sh.Pazilova	
O'zbek va nemis xalqlarida to'y bilan bog'liq shaxs nomlari.....	170
R.U.Axrorova	
Lingvomadaniyatshunoslik: lingvokulturema va logoeistema.....	173
O.O.Bobokalonov, R.U.Akhrorova	
Shifonemas in phraseological units related to the period of youth.....	178
R.U.Axrorova	
Fransuz ertaklarida yoshga oid reprezentlarning leksik-semantik va milliy-madaniy xususiyatlari.....	182
Z.M.Abdullaev	
Nemis tili ismlari motivlari va ism tanlashga ta'sir etuvchi omillar.....	185
Z.M.Abdullaev	
Nemis tilida atoqli otlar va ularning tasnif etilishi.....	188
I.R.O'rinboyev	
Ba'zi na'matak (<i>Rosa</i>) turlarining Farg'ona shahrida tarqalishi va dorivorlik xususiyatlari.....	190
I.D.Yakubov	
Separator-tozalagich qurilmasining parametrlari.....	193
M.Nazarov, A.T.Maxsudaxon	
Javdarni jadal texnologiyada parvarishlash.....	201
Ё.Г.Абдуганиев	
Получение и свойства производных перфторакриловой и перфторметакриловой кислоты.....	205
D.M.Ahmedova	
Ekologik munosabatlarning konstitutsiyaviy-huquqiy asoslari.....	215

O‘ZBEK VA NEMIS XALQLARIDA TO‘Y BILAN BOG‘LIQ SHAXS NOMLARI
ЛИЧНЫЕ ИМЕНА, СВЯЗАННЫЕ С СВАДЬБОЙ, У УЗБЕКСКОГО И НЕМЕЦКОГО
НАРОДОВ
PERSONAL NAMES ASSOCIATED WITH WEDDINGS IN THE UZBEK AND GERMAN
PEOPLE

Pazilova Zilola Shuxratovna¹

¹Farg‘ona davlat universiteti, nemis va fransuz tillari kafedrası katta o‘qituvchisi, f.f.f.d.
(PhD)

Annotatsiya

Mazkur maqolada o‘zbek va nemis xalqlarida to‘y bilan bog‘liq shaxs nomlari to‘ydan bir necha muddat oldin va hatto to‘ydan keyin ham bir necha kun yoki oy davomida kuyov va kelin xonadoniga ma‘lum bir ma‘noda aloqador shaxslar tomonidan atalib turiladigan beqaror leksemalar atroflicha tahlilga tortiladi.

Аннотация

В данной статье имена лиц, связанных со свадьбой, у узбекского и немецкого народов – это лица, связанные в определенном смысле с хозяйством жениха и невесты в течение нескольких дней до свадьбы и даже после свадьбы в течение нескольких дней или месяцев. нестабильные лексемы, названные автором, подвергаются детальному анализу.

Abstract

In this article, the names of persons associated with a wedding among the Uzbek and German peoples are persons associated in a certain sense with the household of the bride and groom for several days before the wedding and even after the wedding for several days or months. unstable lexemes named by the author are subject to detailed analysis.

Kalit so‘zlar: kelin, kuyov, qaynona, qaynota, qayinsingil, qayinog‘a, ovsin, boja, pochcha, quda, qudaxotin, erkak quda, kuyovnavkar, kuyovjo‘ra, kundosh, sovchi, yanga, yo‘lto‘sar, o‘lanchi.

Ключевые слова: невеста, жених, теща, тесть, золовка, невестка, зять, свояк, сват, сваха, сватья, соперница, исполнитель улана.

Key words: bride, groom, mother-in-law, father-in-law, sister-in-law, brother-in-law, daughter-in-law, son-in-law, matchmaker, mother of the son-in-law, father son-in-law.

KIRISH

An‘analar, urf-odatlar qadimdan insoniyat hayoti, turmushi, mehnati va ibratli hayot saboqlari bo‘lib, avloddan-avlodga, o‘tmishdan kelajakka meros bo‘lib qoladigan, barcha tadbirlarda namoyon bo‘ladigan ijtimoiy faoliyat mahsulidir. Marosimlar esa an‘analar va urf-odatlarining amaliy ko‘rinishidir. An‘analar va urf-odatlar milliy, madaniy, maishiy, ijtimoiy-siyosiy va diniy bo‘lib, milliy qadriyatlarining ajralmas qismidir. Chunki har qanday urf-odat, udum, rasm-rusum, marosim va an‘analar milliy qadriyatlar negizida shakllanadi va milliy vijdon, milliy ruh, milliy xulq, milliy odob-ahloq mevasi sifatida uni yaratgan zukko xalq tarbiyasining asosini tashkil etadi. Jamiyatni boshqarishning ma‘naviy omili sifatida yoshlar qalbida mehr-muhabbatli bo‘lish, oila va vatanni sevish, ajdodlar merosidan bahra olish va hayotini qadrlash kabi tuyg‘ularni shakllantiradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA TADQIQOT USLUBLARI

Abdulla Qodiriy o‘zining “O‘tgan kunlar” asarida urf-odatlarga alohida to‘xtalgan. Ota-onalar o‘z farzandlarining nikohi masalasida katta vakolatga ega bo‘lib, ularning kim bilan turmush qurishini ham hal qilishlari mumkinligi, bunda ular o‘z xohlaganlaricha ish tutishlari yoki farzandlari tanlagan xonadon bilan qudachilik rishtalarini bog‘lashga rozi bo‘lishlari yoki rozi bo‘lmasliklari mumkinligi, shariat qoidalari va jamiyat udumlariga ko‘ra, farzandlar ota-onalari ra‘yiga qarshi bormasliklari kerakligini o‘z asarida, ya‘ni Yusufbek xojining o‘g‘li Otabekka “O‘g‘lim, xaytovur sen eshtitdingmi yoki yo‘qmi, biz sening ustingdan bir ish qilib qo‘ydik” jumlasida keltirib o‘tgan.

Nemis tilshunos olimasi Anke Fisherning “Feste und Bräuche in Deutschland” (Germaniya bayramlari va urf-odatlari) nomli tadqiqotida esa har bir mintaqaning oila, jamoa, do‘stlar davrasida yoki tabiat qo‘ynida nishonlanadigan, pasxa yoki rojdestvo kabi katta bayramlardan tortib, kichik

doirada va eng yaqin qarindoshlar bilan bo'lib o'tadigan urf-odatlar, barcha marosimlarning yig'indisi bo'lgan, masalan, tug'ilish, nikoh, motam kabilarni urf-odatlariga kiritadi.

Nemis tilshunos olimasi Anjelika Faylxauyyerning "Feste feiern in Deutschland" (Germaniyada bayramlarning nishonlanishi) nomli tadqiqoti o'tmish va hozirgi kun urf-odatlariga sayohat bo'yicha qo'llanma bo'lib, u avvalgi va hozirgi urf-odatlar, eski an'analar yoki tarixiy voqealar bilan bog'liq bo'lgan urf-odatlar va bayramlarning kelib chiqishi, ularning doimiy ravishda o'zgarib turishi va an'analarning xilma-xil ko'rinishlariga bag'ishlanadi.

OLINGAN NATIJALAR VA ULARNING MUHOKAMASI

To'y bilan bog'liq shaxs nomlari o'zbeklarda quyidagilarga ajratiladi: **sovchi, o'rtada turgan, vakil, vakilota, vakilona, kuyov, kelin, quda, qudag'ay, kuyovnavkar, kuyovjo'ra, qudaxotin, oqsoqollar (erkak qudalar), iz yanga, qaynona, qaynota, qayinegachi, qayinsingil, qayinog'a, ovsin, boja, pochcha, anda (qudaning qudasi), yo'ltosar, o'lanchi** singarilar.

Sovchilar Naimani yoqtirib, Mohlaroyimning taklifini qabul qilib ketdilar (A.Qodiriy).

Kuyov, kelin, quda, qudaxotin va oqsoqol (erkak quda) leksemalari to'ydan bir necha muddat oldin va hatto to'ydan keyin ham bir necha kun yoki oy davomida kuyov va kelin xonadoniga ma'lum bir ma'noda aloqador shaxslar tomonidan atalib turiladigan beqaror leksemalardir. Masalan:

Turing, hoy turing, qudalaringiz kelishdi (S.Ahmad).

Kuyovnavkar, kuyovjo'ra birliklari faqatgina to'y kuni muayyan holat uchun aytiladigan ifodalar hisoblanadi.

I.Ismoilov va M.Narziyevalar tomonidan o'zbek tilidagi qavm-qarindoshlik nomlari bilan bog'liq shaxs nomlari haqida fikr yuritilganda, shaxs nomlari qon-qarindoshlik va nikohdan keyingi qarindoshlikni bildiruvchi shaxs nomlari tarzida farqlanadi. Ko'rinadiki, yuqorida aytib o'tilgan to'y marosimlariga tegishli bo'lgan **kelin, kuyov, qaynota, qaynona, ovsin, qayinegachi, qayinog'a, qayinsingil** kabi ifodalar to'ydan keyingi qarindoshlik nomlari sifatida ajratiladi. Bu leksemalar qatorida **kundosh** tushunchasi ham borki, bu bir kishining nikohidagi ikki ayolga nisbatan ishlatiladi.

Nemis tilida **to'y bilan bog'liq shaxs nomlari** quyidagilarga ajratiladi:

Bräutwerber (quda),
 Braut(kelin),
 Bräutigam (kuyov),
 Schwiegereltern (qaynota, qaynona),
 Schwiegermutter (qaynona),
 Schwiegervater (qaynota),
 Schwiegerschwester (qayinsingil),
 Schwiegerbruder (qayinog'a),
 Schwager (pochcha),
 Schwägerin (kelnoyi),
 Schwiegertochter (qaynota va qaynona uchun kelin) singarilar.

Nemis tilida **to'y bilan bog'liq shaxs nomlari** orasidagi Braut (kelin), Bräutigam (kuyov) leksik birliklar faqatgina to'y kuni qo'llaniladigan birliklardir. Keyinchalik ular er va xotin deb yuritiladi.

XULOSA

Har bir xalqda marosim va urf-odatlar umumiy va o'ziga xos milliy, mental xususiyatlarga ega bo'ladi. Bu xalqlar tarixi, madaniyati, yashash tarzi va undagi ijtimoiy o'zgarishlar bilan bog'lanadi. O'zbek va nemis xalqlarida to'y va dafn marosimlari bilan bog'liq marosimlar urf-odatlar tarkibida katta o'rin egallashi har ikkala xalq uchun ham xarakterli bo'lsa, ularda marosimlarning o'tkazilish tartibi va mohiyatiga ko'ra muayyan farqlanishlar kuzatilib, bu farqlar ikki xalq madaniyatining o'ziga xosligini ko'rsatadi.

To'y marosimlari bilan bog'liq tushunchalarda **sovchi, fotiha, bo'ldi-bo'ldi, yuzochar, sep, ko'ch, vakilota/vakilona, mahr, sha'riy nikoh, taloq, un-guruch, yuk, kuyov ziyofat, chimildiq, paranji, kelin yanga** kabi tushunchalar nemis xalqi to'y marosimlari uchun lakuna hisoblansa, nemislarning to'y marosimlariga doir **nikoh shartnomasi, asal oyi sayohati, sevgi tarixi, kelin guldastasi** tushunchalari o'zbek xalqi qarashlaridan farq qiladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Angelika Feilhauer. Feste feiern in Deutschland, Sanssoici im Verlag Nagel & Kimche AG. – Zürich, 2000. – 408 S.
2. Fischer A. Feste und Bräuche in Deutschland. – Berlin: Sammüller Kreativ GmbH, 2004. – 93 S.
3. Pazilova, Z. (2021). Traditions as an integral part of ethnoculture. THEORETICAL & APPLIED SCIENCE Учредители: Теоретическая и прикладная наука,(9), 689-691.
4. Zilola, P. (2022). Realization of Stable Units. American Journal of Social and Humanitarian Research, 3(10), 117-121.
5. Pazilova, Z. (2023). Paradigm of Customary Names, Characteristics and Uniqueness of the Traditions of the Uzbek and German Peoples. EUROPEAN JOURNAL OF INNOVATION IN NONFORMAL EDUCATION, 3(8), 57-59.
6. Pazilova, Z. (2023). THEORETICAL FOUNDATIONS OF STUDYING TRADITIONAL NAMES IN LINGUISTICS. International Bulletin of Engineering and Technology, 3(8), 58-60.